BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QISH DARSLARINI TASHKIL ETISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI

Zulfiyaxon To‘ychiyeva Abdulxamid qizi
Qo‘qon DU tayanch doktoranti (PhD)

Annotatsiya

Globallashuv jarayoni barcha sohalarda bo‘lgani kabi boshlang‘ich ta’limni tashkil qilishda zamonaviy axborot muhitiga xos jihatlarni inobatga olish zaruriyatini kun tartibiga olib chiqmoqda. O‘quvchilarni ijtimoiy borliq bilan faol tanishtirish uchun “O‘qish” darslari samaradorligini oshirishga nisbatan muayyan talablarni qo‘ymoqda. Mazkur talablarni inobatga olish o‘quvchilarning savodxon bo‘lishlari, borliqni anglay olishlari uchun zarur pedagogik sharoitni yaratib qolmay, balki ularni ijtimoiy munosabatlarga samarali tayyorlab, axborot muhitida to‘g‘ri faoliyat olib borishga o‘rgatadi. Maqolada boshlang‘ich sinf “O‘qish” darslari samaradorligini oshirish mazmuni, tavsifi to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf, “O‘qish” fani, “O‘qish” darslari, samaradorlik, samaradorlikni oshirish, “O‘qish” darslarining samaradorligini oshirish, innovatsion yondashuv, innovatsion yondashuv asosida “O‘qish” darslarining samaradorligini oshirish.*

KIRISH

Pedagogik bilimlar taraqqiyoti tajribasida ijtimoiy subyektlarni tizimli o‘qitishning dastlabki bosqichi sifatida boshlang‘ich ta’limni samarali tashkil etish jamiyat rivojini belgilovchi omillardan biri sifatida baholab kelingan. Aynan bu davrda o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishiga poydevor qo‘yilgani bois sotsiumda ro‘y berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar bilan o‘zaro muvofiq tarzda boshlang‘ich ta’lim mazmunini izchil yangilanib, takomillashtirib kelingan. Zero, bu bosqichda bolalarning bilish faoliyati faollashadi, ular atrof-muhitni anglashga, yangi bilimlarni tizimli, maqsadli o‘zlashtirishga intiladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda o‘qish, yozish va hisoblash bo‘yicha dastlabki bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanishini ta’minlagan mazkur bosqich uzluksiz ta’limning keyingi davrlarida muvaffaqiyatli o‘qish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar bilimlarnigina emas, odob-axloq, jamoa, shuningdek, jamiyatda o‘zini tutish qoidalarini, ijtimoiy subyektlar bilan munosabatlar mazmunini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimini o‘zlashtiradi. O‘qitishning bu davrida tizimli yondashuvni qaror toptirish asosida o‘quvchilarning turli sohalar bo‘yicha qiziqish va qobiliyatga egaliklarini aniqlash imkoniyati mavjud. Bu esa ularni kelgusida to‘g‘ri kasb tanlash va shaxsiy rivojlanish trayektoriyalari bo‘yicha yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni o‘qitishda “O‘qish” fani markaziy o‘rin egallaydi. Chunki o‘quvchilar tomonidan matematika, ona tili, “Informatika va texnologiya asoslari”, “Tarbiya”, “Rus tili”, “Ingliz tili”, “Tabiiy fanlar”, “Musiqiy savodxonlik”, “Tasviriy san’at” kabi fanlar bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish, eng avvalo, ularning o‘qish ko‘nikma, malakasining rivojlanganiga bog‘liq. Zero, “O‘qish”

fani o‘quvchilarda o‘qish savodxonligini shakllantirish va rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanib, u yordamida o‘quvchilarning nutqi boyiydi, so‘z boyligi ortadi va fikrni aniq ifoda etish ko‘nikmalari rivojlanadi. Qolaversa, “O‘qish” darsligida berilgan badiiy asarlar (she’r, ertak, masal, hikoya, rivoyat kabilar) bilan tanishish orqali o‘quvchilarning estetik didi shakllanadi, dunyoqarashi kengayadi.

“O‘qish” fani tarbiyaviy imkoniyatlariga ko‘ra ham muhim ahamiyatga ega. Darslar jarayonida matnlar o‘qish orqali o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy fazilatlar tizimi shakllanadi, kitobga, kitobni mutolaa qilishga qiziqish ortadi.

Global axborotlashuv, raqamli muhitning shakllanishi hamda ushbu muhitda media vositalarining tranformatsiyalashuvi O‘zbekiston milliy o‘qitish tizimining barcha bosqichlarida bo‘lgani kabi boshlang‘ich ta’limi, shu jumladan, “O‘qish” fani mazmunini izchil yangilab, takomillashtirib borishni taqozo etmoqda. Buning natijasida “O‘qish” darslarining samaradorligi oshadi. Ayni o‘rinda ushbu jarayonning umumiy tavsifi yoritiladi.

Dastlab muammoning tub mohiyatini ifodalovchi “samaradorlik”, “samaradorlikni oshirish”, “innovatsion yondashuv”, “innovatsion yondashuv asosida samaradorlikni oshirish” kabi tayanch tushunchalar va ular yordamida talqin etilgan holatlar xususida so‘z yuritiladi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da o‘zagi “samara” (lot. “effectus” – ijro, harakat) [19]; a. “ثمرة” – meva, hosil) [21, – 434-b.] bo‘lgan “samaradorlik”

kategoriyasi shunday ta’riflanadi: samaradorlik – olingan natija bilan unga erishish uchun foydalanilgan resurs (omil)larning ayrim xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik” [7, – c. 18]; “kutilgan natijaga erishish uchun sarflangan xarajatlar yoki resurslar bilan olingan natija o‘rtasidagi farqni o‘lchashga xizmat qiladigan nisbiy ko‘rsatkich” [2, – c. 192]. Demak, samaradorlik muayyan maqsadga erishish uchun sarflangan xarajat, resurslarning qiymati bilan erishilgan natijaning qiymatdorligi (foydasi) o‘rtasida farq bilan ifodalanadi va sarflagan resurs (moliya, mablag‘)idan ko‘ra qo‘lga kiritilgan natija (mahsulot)ning afzal, foydali ekani bilan baholanadi.

“Samaradorlik” tushunchasi ilk marta iqtisodchilar – angliyalik Uilyam Petti (Angliya) hamda Fransua Kene (Fransiya) tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, davlat yoki xususiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan tashkil qilinayotgan amaliy harakatlarning natijadorligi (natijasi)ni baholovchi tushuncha [8, – c. 10]; mehnatni boshqarishning iqtisodiy samaradorligini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkich [9; 13, – c. 27] sifatida qo‘llanilgan.

Turli sohalarga oid akademik til iste’molida “samaradorlik” tushunchasi “iqtisodiy samaradorlik” shaklida qo‘llaniladi. Zero, olingan natijaning afzalligi uning uni qo‘lga kiritish uchun sarflangan muayyan qiymatga ega moliya, mablag‘ va resurslarga bog‘liq. Jumladan, “iqtisodiy samaradorlik – ishlab chiqarish faoliyati natijasi bo‘lib, iqtisodiy faoliyatning yakuniy natijalarining sarflangan resurslar hajmiga nisbati” [15, – c. 663]. Iqtisodiy samaradorlik iqtisodiy o‘sishni tavsiflaydi. Zero, “iqtisodiy o‘sishsiz turli moddiy ehtiyojlarni qondirish va turmush darajasini yaxshilash mumkin emas” [17, – c. 183].

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda tushunchani shunday sharhlash mumkin: *samaradorlik* – muayyan hajmdagi resurslar (ish kuchi mehnati, jihozlar (ishlab chiqarish vositalari), mablag‘, vaqt)dan foydalangan holda harakat, faoliyat yoki jarayonda yuqori ko‘rsatkichga erishishganlik hamda ushbu holatni tavsiflovchi natija (mahsulot). Ko‘p holatlarda samaradorlik imkon qadar resurslar (ish kuchi mehnati, jihozlar (ishlab chiqarish vositalari), moliya, vaqt)ni kam sarflab, tezroq va ko‘p hajmda sifatli mahsulot olish (natijaga erishish) samaradorlikni anglatadi.

Samaradorlik negizida xarajat/natija o‘rtasidagi nisbat; unumdorlik (yuqori natijadorlik, hosildorlik); tejamkorlik (sarf-xarajatlarning tejalishi); sifat (yuqori darajadagi natija); samaradorlik tavsifi (miqdor emas, sifatning ustuvorligi) aks etadi. Ayni o‘rinda shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish joizki, u qaysi soha bo‘yicha tashkil etiladigan faoliyat yoki jarayonlarda bo‘lishidan qat’i nazar samaradorlik faqat miqdor ko‘rsatkichlar bilangina emas, balki sifatni ifodalovchi qiymatlar bilan ham baholanadi. Ya’ni, ishlab chiqarish jarayonida aholi ehtiyojini qondiradigan mahsulotlarning ko‘p miqdordagina ishlab chiqarilishining o‘zi yetarli emas, balki taqdim qilinayotgan mahsulotning sifati ham yuqori bo‘lishi zarur.

Ko’p holatlarda samaradorlikka erishganlik unumdorlik (ya’ni ishlab chiqarilgan mahsulotlar)ning ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatini topish orqali baholanadi. Ammo bu o‘rinda ishlab chiqarilgan mahsulotning iqtimoiy, iqtisodiy, shu bilan birga iste’molchilarning ma’naviy ehtiyojlarini, ularga bo‘lgan talablari darajasining qondirishi hisobga olinmaydi. Natijada “yuqori samaradorlikka ega texnologiyalar (energiya tejovchi, material tejovchi va mehnatni tejovchi) ko‘rinishidagi resurslar ba’zan hatto salbiy ijtimoiy foydali bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun sarflanadi. Shu sababli ishlab chiqarish samaradorligini baholashning birgina resurs sarfi nuqtayi nazaridan maksimal natijaga erishish yoki zarur natijaga erishish uchun xarajatlarni minimal darajada kamaytirish” [15, – c. 664] amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Zero, “zamonaviy bozor iqtisodiyotida samaradorlik nafaqat iqtisodiy samaradorlik va unumdorlik nuqtayi nazaridan, balki ishlab chiqarilgan tovarlarning aholi ehtiyojlarini qondira olishi negizida ham ko‘rib chiqilishi kerak” [15, – c. 664]. Darhaqiqat, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish jarayonida faoliyat yoki jarayonning samaradorligini baholashda resurslar (ish kuchi mehnati, jihozlar (ishlab chiqarish vositalari), технологиялар, mablag‘, vaqt) bilan birga mahsulotning iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jihatdan foydali ekani, iste’molchining ehtiyojini qondira olish darajalari inobatga olinsagina kutilgan natijaga erishilganlikni e’tirof qilish mumkin.

Shu bois so‘nggi yillarda “samaradorlikni oshirish” muammosining tobora dolzarblik kasb etayotgani, mahsulotlarni ishlab chiqarishda mavjud resurslar (ish kuchi mehnati, jihozlar (ishlab chiqarish vositalari), texnologiyalar, mablag‘, vaqt)dan oqilona va unumli foydalanish zarurligiga bejiz e’tibor qaratilmayapti.

Mazkur ehtiyojdan kelib chiqqan holda “samaradorlikni oshirish” tushunchasini shunday ta’riflash mumkin: *samaradorlikni oshirish* – moddiy yoki nomoddiy ishlab chiqarishda mavjud resurslar (ish kuchi mehnati, jihozlar (ishlab chiqarish vositalari), texnologiyalar, mablag‘, vaqt)dan oqilona, unumli foydalanishga imkon beruvchi texnologiyalarni qo‘llagan holda natijani ko‘paytirish yoki ana shu natijaga resurslarni

kamroq sarflash bilan erishishga qaratilgan jarayon. Demak, samaradorlikni oshirishga uchta asosiy yo‘l, ya’ni, 1) garchi avvalgi hajmda resurslar sarflansa ham ko‘proq natijani qo‘lga kiritish; 2) avvalgi natijalarga resurslarni kamroq sarflashga erishish; 3) faoliyat, ish jarayonini yangi g‘oyalar, ilg‘or texnologiyalar, zamonaviy yondashuvlarga tayangan holda takomillashtirish va optimallashtirish (samarali, tejamkor, qulay holatga keltirish) bilan erishiladi.

Boshlang‘ich sinflarda “O‘qish” darslarini takomillashtirishga (ish kuchi mehnati, jihozlar (ishlab chiqarish vositalari), texnologiyalar, mablag‘, vaqt)dan oqilona, unumli foydalanish orqali erishilsa, optimallashtirishga o‘quvchilar tomonidan kam vaqt va kuch sarflangani holda o‘qish, tushunish va fikrlash ko‘nikma, malakalari yuqori darajada o‘zlashtirishga erishishni ta’minlovchi ta’lim muhitini yaratish asosida erishiladi.

Bu jarayonda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy bilimdonligi, metodik kompetentlik va boy ish tajribasiga egaligi, ijodkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zero, aynan o‘qituvchi o‘quv materiali negizida darsning maqsadini aniq belgilaydi, maqsadga erishish uchun samarali bo‘lgan metod hamda o‘qitish vositalarini tanlaydi, o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishda har bir o‘quvchining individual imkoniyatini hisobga oladi, sinf o‘quvchilarining barchasi bilan birdek samarali ishlay olish uchun vaqt (vaqt byujdeti)ni to‘g‘ri taqsimlaydi.

Quyidagi omillar ham boshlang‘ich sinflarda “O‘qish” darslarining samaradorligini oshirish (takomillashtirish va optimallashtirish)ga xizmat qiladi: o‘quv materiali – matnlarning o‘quvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlari (qiziqishi, motivatsiyasi)ni inobatga olgan holda qiziqarli bo‘lishiga erishish, ortiqcha, keraksiz ma’lumotlardan foydalanmaslik; dars jarayonida samarali o‘qitish metodlari, jumladan, interfaol metodlar va ilg‘or pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishiga erishish; darslarda o‘quvchilarning faol ishtirok etishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish; vaqtdan unumli foydalanish; dars bosqichlarini metodik jihatdan oqilona, to‘g‘ri rejalashtirish; vaqt yo‘qotishlarining oldini olish; o‘quvchilarga ularning qobiliyatini inobatga olgan holda topshiriq berish; o‘quv topshiriqlarining lo‘nda, aniq va qisqa bayon qilinishiga erishish; o‘quv topshiriqlarini bajarishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan o‘quvchilarga metodik yordam berish; qo‘shimcha – aniqlashtiruvchi vazifalar berish orqali ular tomonidan qiyinchiliklarning bartaraf qilinishiga erishish; dars jarayonida raqamli texnologiya va zamonaviy texnik vositalardan foydalanish; o‘quv natijalari uchun o‘quvchilarni rag‘batlantirish va ruhlantirish; o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyati natijalarini xolis va to‘g‘ri baholash. Boshlang‘ich sinflarda “O‘qish” darslarini tashkil qilishga innovatsion yondashuvni qaror toptirish “ta’lim samaradorligini oshirishga, o‘quvchi shaxsini

hamda uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi” [3, – c. 152].

Innovatsion yondashuv asosida boshlang‘ich sinf “O‘qish” darslari samaradorligini oshirish murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, uni aniq maqsad asosida uzluksiz, tizimli, izchil tashkil etishni, faoliyat jarayonini doimiy tahlil va nazorat qilib borishni, pedagogik faoliyatni oqilona rejalashtirib borishni taqozo etadi. Tegishli jarayonning muvaffaqiyati resurslarni tejash, ulardan oqilona foydalanish, natijaning yuqori darajada bo‘lishi, o‘quvchilar o‘quv-bilish faolligining oshishi,

ularda o‘qish kompetensiyalarining samarali rivojlanishi, ta’lim sifatining izchil ta’minlanishi, resurslar (ayniqsa, vaqt) xarajatining minimal darajada past bo‘lishi bilan belgilanadi.

Shunday qilib, boshlang‘ich ta’lim tizimida “O‘qish” fani yetakchi o‘rin egallaydi. Zero, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quv dasturiga kiritilgan barcha fanlarni samarali o‘zlashtirish o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikma va malakalari qay darajada shakllanganligiga bevosita bog‘liqdir. Bunday sharoitda “O‘qish” fanining mazmunini zamonaviy g‘oyalar va ilg‘or pedagogik yondashuvlar bilan boyitish, darslarning samaradorligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, darslarni aniq maqsad asosida, innovatsion usullardan foydalangan holda uzluksiz va tizimli tashkil etish yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ахметова Д.З. Инновации в образовании: сущность и особенности осуществления // Ж. Инновации и инвестиции. – М.: 2015. - № 4. – С. 18-21.
2. Галиуллина И.Г. Теоретическое обоснование категории “эффективность”: понятие, сущность и виды // Ж. Форум молодых ученых. – Саратов: 2017. – № 8. – С. 192.
3. Инновационные подходы к организации учебного процесса в начальной школе / К.Н.Хлебникова, В.И.Куриленко, О.Г.Кошевая и др. // Ж. Молодой ученый. – Казань: 2024. - № 1 (500). – С. 152.
4. Инновацион таълим технологиялари / Н.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Сайфуров, А.Тўраев. – Т.: “Сано-стандарт” нашриёти, 2015. – 7-б.
5. Инновация // https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/innovatsiya-uz.
6. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари / Қўлл. – Т.: Ўқитувчи, 2004. – 92-б.
7. Ковалев В.В., Волкова О.Н. Анализ хозяйственной деятельности предприятия / Учебник. – М.: ООО “ТК Велби”, 2012. – С. 18.